



MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



A.AVLONIY NOMIDAGI
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI



JIZZAX VILOYATI
PEDAGOGIKA MARKAZI

**“INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FAN, TA'LIM VA ISHLAB
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI
(2024-YIL, 15-IYUN)**

MATERIALLARI

**“ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND
PRODUCTION BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES:
PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
ONLINE CONFERENCE
(JUNE 15, 2024 Y)**

MATERIALS



4. O‘roqov Sh. Oliy ta‘lim muassasalarida mutaxassisni innovatsion tayyorlashning didaktik xususiyatlari// Ta‘limda innovatsiyalar: strategiya, nazariya va amaliyot. Xalqaro ilmiy maqolalar to‘plami. – Samarqand: 2018. I qism. – B.48-52.

MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTI METODISTINING VAZIFALARI VA MALAKA TALABLARI

Atadjanova Shaxnoza Qosimboyevna

+998 94 315 89 00

shaxnozaatadjanova@gmail.

Annotatsiya: Maktabgacha ta‘lim tashkilotida faoliyat olib boruvchi uslubchi o‘z kasbini sevishi, ijodiy yondashishi, zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalana olishi, Ilk qadam davlat o‘quv dasturi, Davlat talablari shuningdek tizim uchun joriy qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni mazmun mohiyatini anglagan bo‘lishi, o‘z ustida ishlab yangiliklarni amaliyotga joriy qilishi kerak.

Kalit so‘zlar: Metodist, tarbiyachi, tashabbuskor, talabchan, rahbarlik qobiliyati, Ilk qadam, Davlat talablari, lavozim vazifalari, malaka talablari, zamonaviy axborot texnologiyalari.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti ustavida har bir maktabgacha ta‘lim tashkiloti tomonidan qabul qilingan ustaviga binoan metodistning ish jarayonida huquq va vazifalari aniqlab belgilab beriladi, ya‘ni u metodik jihatdan kuchli ma‘naviy, siyosiy ongi, dunyoqarashi keng tadbirkor, kamida bitta xorijiy tilni biluvchi pedagoglardan tayinlanadi.

O‘z hamkasblarining hurmatini qozonishi va ularga o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlarida yordam berish uchun metodist qanday rahbarlik sifatlariga ega bo‘lishi lozim?

Metodist faqat yaxshi nazariy tayyorgarlikkagina emas, balki bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmasiga ham ega bo‘lishi zarur. Tajribali metodistning tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondashishi: g‘oyalarini umumlashtira bilish, maqsadga muvofiq ishlash, har bir tarbiyachining imkoniyat va qobiliyatlarini hisobga olishiga qarab farqlanadi.

Metodist talablarni qo‘yishda talabchan va qat‘iy bo‘lishi kerak. Rahbarning o‘ziga bo‘ysunuvchilar bilan muloqotning emotsional-irodaviy tomonini ifodalovchi bu sifatlar rahbarlik uslubining muhim xislatini, talabchanlikni hosil qiladi. Yuksak talabchanlikni sezgirlik, xayrixohlik, odamlarga hurmat bilan birga olib borish zarur. Talabchanlik - bu qattiqqo‘llik degan gap emas. Buyruqlar, qattiq tanbehlar, xayfsanlarning foydasidan ko‘ra zarari ko‘proq va bu odatda rahbarning kuchliligidan emas, balki zaifligidan dalolat beradi.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti metodistining ta‘lim- tarbiyaviy faoliyatining samaradorligi uning obro‘si ko‘p jihatdan pedagoglar jamoaning jipslashganligiga, eng avvalo, butun maktabgacha ta‘lim rahbar yadrosida birlik va o‘zaro tushunishning mavjudligiga bog‘liq bo‘ladi.

Tarbiyachilarning aniq intizomi va ishda uyushqoqligini ta‘minlash, jamoada jamoa fikrini, tarbiyachilarning bir-birlarining kamchiliklariga tanqidiy munosabatini

shakllantirish, mehnat faolligi va ijodiy ishlash ehtiyojini rag'batlantirish, qabul qilingan qarorlar yechimini ta'minlash kabi ijtimoiy-psixologik masalalarni hal qilish metodist uchun birmuncha murakkablik qiladi.

Har bir yosh mutaxassis ishini endi boshlayotgan yosh tarbiyachi maslahatlar olib turishi uchun unga tajribaliroq murabbiy va obro'liroq tarbiyachini biriktirish lozim.

Yosh mutaxassisning kasb mahoratini egallab olishi osonlik bilan bo'lmaydi. Mana shuning uchun ham yosh pedagog ishining ilg'or metodlari va usullarini egallashga, o'z bilimlarini doimo to'ldirib borishga, erishilganlar bilan cheklanmay, tarbiya turlarini egallash ishtiyoqini singdirishga yo'llash metodistning vazifasi hisoblanadi. Shuningdek, metodist quyidagilarni bilishi lozim:

- maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiyaviy ishga metodik rahbarlikni amalga oshiradi;

- «Ilk qadam» dasturining bajarilishini ta'minlaydi va kontrol qiladi, ta'lim-tarbiyaviy ishning to'g'ri uyushtirilishi uchun javobgar;

- ilg'or pedagogik tajribani o'rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi, Pedagogik kengashda ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi;

- maktabgacha ta'lim muassasasidagi metodik kabinetning ishini tashkil qiladi; bolalarning yoshlariga muvofiq pedagogik qo'llanmalar va o'yinchoqlarni tanlaydi;

- ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ibot qilish, turli guruh tarbiyachilari, shuningdek, Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab ishida uzviylikni ta'minlash bo'yicha ishni uyushtiradi. [3. 57 b.]

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2021-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to'g'risida" gi buyrug'iga keltirilgan ilovada "Maktabgacha ta'lim xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari" keltirilgan.

"Maktabgacha ta'lim xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari" ning 2-bobining 2- paragrafida Maktabgacha ta'lim tashkilotlari metodistning lavozim malaka tavsiflari keltirilgan. [1.]

Metodistning lavozim vazifalaridan eng muhimlari:

Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik faoliyatga rahbarlik qilish;
–metodist o'z faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, qarori va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari hamda ta'limga oid boshqa amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, Maktabgacha ta'limi vazirligi hamda uning hududiy boshqaruv organlari, bo'ysunuviga qarab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimlari (keyingi o'rinlarda mahalliy davlat hokimiyati organlari" deb yuritiladi)ning qarorlari va boshqa hujjatlarda maktabgacha ta'lim tashkiloti (keyingi o'rinlarda tashkilot deb yuritiladi)ga berilgan tegishli topshiriqlar ijrosini to'liq bajarilishini ta'minlash.

Bilishi lozim:

–maktabgacha ta’lim tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ularning mazmun-mohiyatini;

–maktabgacha ta’limning davlat ta’lim talablari, ta’lim-tarbiya reja va o‘quv dasturlarining mazmunini;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 13-maydagi 391-son va “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 22- dekabrda 802-son qarorlari talablari asosida maktabgacha ta’limning davlat ta’lim talablari, ta’lim-tarbiya reja va o‘quv dasturlarining mazmunini;

–zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalana olishni;

–maktabgacha ta’lim pedagogikasi, psixologiyasi va maktabgacha yoshdagi bolalar fiziologiyasini;

–bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarini amaliyotga tatbiq etish va uzluksiz takomillashtirib borish yo‘llarini;

–jamoat shartnomasida belgilangan talablarga qat’iy rioya etish hamda jamoada sog‘lom raqobatli ma’naviy-muhitni shakllantirish, ahillik va inoqlikni mustahkamlash orqali faoliyat yuritishni;

Metodistga qo‘yiladigan malaka talablari:

–maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy pedagogik ma’lumot (nomutaxassis oliy ma’lumotlilar maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi kasbiy qayta tayyorlov kursini tamomlagan);

–xorijiy tillardan birining boshlang‘ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi;

–maktabgacha ta’lim tizimida uch yildan kam bo‘lmagan pedagogik ish staji.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat olib boruvchi metodist pedagogik mahoratga, pedagogik qobiliyatga ega bo‘lishi, o‘z kasbini sevishi, o‘z ustida ishlashi, zamon bilan hamnafas bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2021-yil 30-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 255-sonli buyrug‘i.

2. “Ilk qadam”davlat o‘quv dasturi takomillashtirilgan ikkinchi nashri.T; 2022 – yil

3. Nuraddinova R.S., Dautova B. E. Maktabgacha ta’lim tashkiloti uslubchisining ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish metodikasi. Uslubiy qo‘llanma. T.: “Bookmany print” nashryoti. 2022-y. 100 bet.